

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BERDIMURATOVA MADINA XAYRULLAYEVNA

**TIL TIZIMIDA NOVERBAL VOSITALARNING LINGVOMADANIY
TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Jizzax – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Berdimuratova Madina Xayrullayevna

Til tizimida noverbal vositalarning lingvomadaniy tadqiqi..... 3

Бердимуратова Мадина Хайруллаевна

Лингвокультурологическое исследование невербальных средств
в системе языка 25

Berdimuratova Madina Khayrullayevna

Linguocultural study of non-verbal means in the language system..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BERDIMURATOVA MADINA XAYRULLAYEVNA

**TIL TIZIMIDA NOVERBAL VOSITALARNING LINGVOMADANIY
TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Jizzax – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Fil4313 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (jdpu.uz) va "ZiyoNet" axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Urinbayeva Dilbar Bazarovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Mo'minov Siddiqjon Ma'murjonovich
filologiya fanlari doktori, professor

Jo'rayeva Bibish Muhsinovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Dissertatsiya himoyasi Jizzax davlat pedagogika universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/04.06.2020.Fil.113.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "26" 12 kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-73; faks: (872) 226-46-56; e-mail: jspi_info@umail.uz Jizzax davlat pedagogika universiteti. Bosh o'quv bino, 2-qavat, ma'ruzalari zali).

Dissertatsiya avtoreferati bilan Jizzax davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (40-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil:130100, Jizzax shahri, Sh.Rashidov shoh ko'chasi, 4. Tel.: (872) 226-13-57, 226-21-73; faks: (872) 226-46-56).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "12" 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil "12" 12 dagi 32 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.A.Jumanazarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol. fanlari doktori, professor

N.N.Xadjimusayeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol. fanlari bo'yicha falsafa doktor (PhD), dotsent

U.Qosimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi filol fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida nutqiy faoliyatni lingvomadaniy, pragmlingvistik, sotsiolingvistik hamda kognitiv aspektlarda tahlil qilish global ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. So‘nggi yillarda “til – madaniyat – shaxs” uchlik modeli asosida muloqotda ishtirok etuvchi shaxslarning milliy-madaniy, gender va psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan lingvomadaniyatshunoslik, pragmlingvistika va kommunikativ tilshunoslik yo‘nalishlari jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, nutq jarayonida so‘zsiz ifoda vositalari – imo-ishora, mimika va paralingvistik unsurlarining kommunikativ vazifalarini tahlili chuqurroq yondashuvni taqozo etishi bilan dolzarbdir.

Dunyo fanida amalga oshirilayotgan lingvistik tadqiqotlar tildagi mavjud hodisalar mohiyatini ochib berishda noverbal vositalarning muhim o‘rin tutishi, ularda til sohibining ijtimoiy hayot tarzi, dunyoqarashi, til birliklaridan foydalanish mahorati namoyon bo‘lishida o‘ziga xos imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bu bevosita nutqiy vaziyatda amal qiluvchi noverbal vositalarni o‘rganish bilan bog‘liq masalalarni ham qamrab oladi. Mazkur holat o‘zbek tilshunosligida ham xalqimizning lingvomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi noverbal vositalarni monografik rejada o‘rganish, bu borada salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirish hamda uni ilm ahliga yetkazish zaruratini yuzaga keltiradi.

O‘zbek tilshunosligida keyingi yillarda bu jarayonni tubdan tadqiq qilish va mavjud holatni bartaraf etishga qaratilgan izlanishlarni ko‘rish mumkin. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi va keng soha sifatida ishlatilishi hamda xalqaro tillar singari chet davlatlarda o‘rgatila boshlanishi buning dalilidir, shu bilan bir qatorda mamlakatimizda qabul qilinayotgan bir qator farmon va hujjatlarida “o‘zbek tilini xorijiy mamlakatlarda keng targ‘ib qilish, uni o‘rganish istagida bo‘lgan chet ellik fuqarolarga ko‘maklashishga mo‘ljallangan o‘zbek tilini o‘rgatuvchi onlayn platforma tashkil qilish, uning axborot bazasini ta‘minlash va muntazam boyitib borish”¹ ham fan va davlat oldidagi dolzarb masalalardandir. Bundan kelib chiqadiki, tilni o‘rganishda “tana tili” bo‘lgan imo-ishoralarni tadqiq qilish ham fan oldidagi dolzarb masalalardandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF–5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF–5847-son “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta‘lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF–6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2021-yil 19-maydagi PQ–5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5058351>. 2020-yil, 21-oktabr.

huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy rivojlantirishda innovatsion gʻoyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yoʻllari” ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida paralingvistik vositalar tadqiqi boʻyicha ahamiyatli izlanishlar oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab koʻzga tashlanadi. Jumladan, T.M.Nikolayeva, B.A.Uspenskiy, G.V.Kolshanskiy, I.N.Gorelov, G.E.Kreydlin, A.Garkavets, L.S.Vigotskiy, A.A.Reformatskiy, M.L.Butovskaya, E.G.Kulikova, I.A.Kuznetsov, I.A.Golovanova, I.A.Krim² kabi olimlarning tadqiqotlarida noverbal vositalarning turli aspektlarda yoritilganini koʻrish mumkin.

Oʻzbek tilshunosligida ham paralingvistik vositalar yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Moʻminov, Sh.Iskandarova, A.Aripova, Z.Akbarova, Q.Rasulov, A.Haydarov, G.Toirova, Q.Kaxarov, X.Ismoilov, B.Axmedov, M.Qurbanov, M.Burxonova, Barotova³ning tadqiqotlarini koʻrsatish mumkin.

² Николаева Т. Невербальные средства человеческой коммуникации и их место в преподавании языка. // Роль и место страноведения в практике преподавания русского языка как иностранного. – Москва: МГУ, 1969. – С. 47-71; Николаева Г.М., Успенский Б.А. Языкознание и паралингвистика. // Лингвистические исследования по общей и славянской типологии. – Москва, 1966. – С. 71; Колшанский Г.В. Паралингвистика. – Москва: Наука, 1974. – 79 с; Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. – Москва: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009. – 112 с; Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: язык тела и естественный язык. – Москва: Новое литературное обозрение, 2002. – 592 с; Гарькавец С.А. Тактильно-кинестическая система человека и ее роль в межличностной коммуникации: [учебное пособие по психологии невербального общения]. – Луганск: Ноулидж, 2012. – 184 с; Выготский Л.С., Лурия А.Р. Этюды по истории поведения. – Москва, 1993. – С. 93-95; Реформатский А.А. Введение в языкознание. – Москва: Аспект Пресс, 1996. – С. 367; Бутовская М.Л. Язык тела: природа и культура (эволюционные и кросс-культурные основы невербальной коммуникации человека). – Москва: Научный мир, 2004. – 440 с; Куликова Э.Г. Норма в лингвистике и паралингвистике: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ростов на Дону, 2004. – 312 с; Кузнецов И.А. Национально обусловленные модели фатической диалогической вопросоответной коммуникации в современной русской речи: Дисс. ... канд. фил. наук. – Нижний Новгород, 2020, – 244 с; Голованова И.А. Репрезентация невербального поведения в русских и немецких художественных текстах: сопоставительный аспект: Дисс. ... канд. фил. наук. – Новосибирск, 2009. – 205 с; Крым И.А. Жестовые компоненты речевой коммуникации: Дисс. ... канд. филол. наук. – Кемерово, 2004. – 153 с.

³ Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари. – Андижон, 1980. – 24 б; Саидхонов М. Новербал воситалар ва ўзбек тилида уларнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1993. – 26 б; Саидхонов М. Алоқа-аралашув ва имо-ишоралар. – Тошкент: Фан, 2008. – 83 б; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. док. дисс. – Тошкент, 2000. – 236 б; Искадарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг шакллари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Самарқанд, 1993. – 140 б; Арипова А. Нотиклик нутқининг лисоний-услубий воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 186 б; Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – 135 б; Расулов Қ. Ўзбек мулоқот хулқининг функционал хосланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 139 б; Ҳайдаров А. Коннотатив маънонинг фонетик воситаларда ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 136 б; Тоирова Г. Ўзбек нутқий мулоқотида системавийлик ва информативлик: Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. – Тошкент, 2017. – 157 б; Кахаров Қ. Ўзбек ва немис нутқий этикетларининг қиёсий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. – Андижон, 2020, – 148 б; Исмоилов Х.Т. Суд лингвистикасининг сотсиолингвистик ва психолингвистик аспектлари (Жиноят ишлари бўйича суд мажлиси мисолида): Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. – Андижон, 2021. – 142 б; Ахмедов Б.Р. Паралингвистик воситаларнинг гендерологик ва прагматик тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. докт. ... дисс. –

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetining 2022-2027-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "O'zbek filologiyasining dolzarb muammolari" mavzu yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tilida nutqiy muloqot jarayonida qo'llaniladigan noverbal vositalarning, xususan, vizual-kinesik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning milliy-madaniy tafakkurdagi o'rnini va ijtimoiy muloqotdagi funksiyalarini ilmiy-nazariy tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon va o'zbek tilshunosligida nutqiy vaziyatda qo'llaniladigan vizual-kinesik birliklarning ilmiy-nazariy asoslarini yoritish, ularning o'ziga xos belgilari va qo'llanish tamoyillarini aniqlash;

o'zbekona nutqiy muloqotda qo'llanuvchi noverbal vositalarni to'plash va tizimlashtirish va ularning funksional-semantik jihatlarini tahlil qilish;

o'zbekona muloqotda uchraydigan vizual-kinesik birliklarni mavzu guruhlari (frenologiya, ekspressiv harakatlar, fiziognomika, okulesika) bo'yicha tasniflash hamda ularning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash;

o'zbek xalqining nutqiy muloqot madaniyatida noverbal belgilar orqali ifodalanuvchi milliy ijtimoiy turmush tarzini aks ettiruvchi semantik va madaniy kodlarni tahlil etish.

Tadqiqotning obykti sifatida o'zbek tilidagi nutqiy vaziyatlarda qo'llaniladigan noverbal, xususan, vizual-kinesik vositalar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti badiiy matnlar va jonli nutqiy muloqotda uchraydigan vizual-kinesik vositalarning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, tasnifiy, qiyosiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'zbek xalqining milliy tafakkuri va ijtimoiy hayot tarzini aks ettiruvchi vizual-kinesik birliklarning ilmiy-nazariy asoslari jahon va o'zbek tilshunosligi tajribasi asosida tizimli tahlil qilinganligi asoslangan;

o'zbek tilida noverbal muloqot vositalarining 485 dan ortiq turlari – *boshni liqillatmoq, afti burishmoq, qovog'ini solmoq, yuzini burmoq* va boshqalar to'planib, ularning semantik-pragmatik xususiyatlari isbotlangan;

o'zbekona noverbal muloqot vositalarining lingvomadaniy tahlili asosida milliy-madaniy kodlar – *soch turmagi, jins, yosh, yuz ifodasi, qo'l va ko'z harakati, noz-karashma, yolg'on gapirish, ishonchsizlik, tajovuzkorlik* va h.k. aniqlanib, ularning ijtimoiy-madaniy mazmuni yoritilgan;

Андижон, 2021. – 155 б; Курбанов М.А. Ўзбек, усмонли турк, инглиз ва рус тилларида новербал мулоқотни ифодаловчи воситалар тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.докт. ...дисс. – Андижон, 2021. – 192 б.; Бурханова М.М. Креолизатив матнларнинг паралингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан.б.фалс.докт. ...дисс.автореф. – Фарғона, 2022. – Б. 56; Barotova M.O. O'zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi: Filol.fan.bo'yicha fals.dokt. ...diss. – Buxoro, 2023. – B. 154

o‘zbek tilida qo‘llaniladigan vizual-kinesik vositalar frenologiya, ekspressiv harakatlar, fiziognomika va okulesika kabi to‘rt asosiy guruh bo‘yicha tizimlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijalari asosida aniqlangan kinesik noverbal birliklar orasida mavjud bo‘lgan tana a‘zolari nomlari asosidagi paralingvizmlarning tizimiy tahlili amalga oshirilib, birdan ortiq a‘zo nomlari asosida shakllangan paralingvizmlar asoslangan;

o‘zbekona paralingvistik vositalarning sistemaga solinishi asosida jonli muloqot jarayonida sof harakatni ifodalab kelishi, yashirin maqsadni anglatishi, shuningdek, ijobiy va salbiy mazmuni ifodalashga xizmat qilishi hamda bajarilishiga ko‘ra bevosita so‘zlovchi tomonidan amalga oshirilishi yoki tinglovchiga ma‘lum darajada ta‘sir qilinishi, teginishi natijasida yuzaga kelishi mumkinligi isbotlangan;

paralingvistik vositalar nafaqat jonli muloqotning, balki shaxsning ruhiy, individual, ijtimoiy, axloqiy, ma‘naviy va madaniy, gender xususiyatlarini o‘zida aks ettira oladigan nutq komponenti ekanligini antroposentrik yo‘nalishda dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qo‘llanilgan tadqiq usullari hamda ularda keltirilgan ilmiy ma‘lumotlarning ishonchli manbaga tayanilganligi, o‘zbek tili nutqiy vaziyat birliklari bo‘yicha amalga oshirilgan tahlillar tavsifiy, tasnifiy, qiyosiy metodlari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, kelgusida qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslikda pragmatika, pragmalingvistika, profaylingvistika, lingvomadaniy yo‘nalishlardagi izlanishlar, shu bilan birga nutqiy vaziyat birliklari mavzusi bo‘yicha tadqiqotlar uchun manba va nazariy asos vazifasini bajarib, tadqiqot ishida erishilgan natijalar, keltirilgan xulosalar tilshunoslikda pragmatika sohasida hamda etiket birliklariga oid bir qator masalalarga oydinlik kiritishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mavzuning o‘rganilishi nafaqat bir millat tilshunosligi, sotsiologiyasi va madaniyatini chuqurroq anglashga, balki milliy tilning o‘ziga xos tomonlari ham inobatga olinib, tilshunoslar, o‘zbek tili o‘qituvchilari, til o‘rganuvchi xorijliklar, qiziquvchilar uchun muhim lingvistik manba bo‘lib xizmat qila oladi. Tadqiqot natijalari oliy o‘quv yurtlarida “Lingvokulturologiya”, “Pragmalingvistika”, “Sotsiolingvistika”, “O‘zbek tili amaliyoti”, “Nutq madaniyati”, “Ritorika” singari fanlar va maxsus kurslarni o‘qitishda material bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Til tizimida noverbal vositalarning lingvomadaniy tadqiqiga doir olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘zbek xalqining milliy tafakkuri va ijtimoiy hayot tarzini aks ettiruvchi vizual-kinesik birliklarning ilmiy-nazariy asoslari jahon va o‘zbek tilshunosligi tajribasi asosida tizimli tahlil qilingan xulosalardan AM-F3-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta‘limiy korpusini yaratish mavzusi” nomli amaliy loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2020-2023-yy) foydalanilgan (Alisher Navoiy

nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 12-iyundagi 01/4-2451-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbekona paralingvistik vositalarning qayd etilgan xususiyatlari orqali loyihaning mukammallashuviga erishilgan;

o‘zbek tilida noverbal muloqot vositalarining 485 dan ortiq turlari (boshni liqillatmoq, afti burishmoq, qovog‘ini solmoq, yuzini burmoq va boshqalar) to‘planib, ularning semantik-pragmatik xususiyatlari tavsiflangan ilmiy xulosalardan IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada (2022-2024-yy) foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 9-iyuldagi 01/4-3020-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida tahlilga tortilgan paralingvistik vositalar haqidagi nazariy bilimlarning yangi ma’lumotlar bilan boyishiga erishilgan;

o‘zbekona noverbal muloqot vositalarining lingvomadaniy tahlili asosida milliy-madaniy kodlar – *soch turmagi, jins, yosh, yuz ifodasi, qo‘l va ko‘z harakati, noz-karashma, yolg‘on gapirish, ishonchsizlik, tajovuzkorlik* va h.k. aniqlanib, ularning ijtimoiy-madaniy mazmuni yoritilgan xulosalardan AM-F3-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish mavzusi” nomli amaliy loyihada dissertatsiya ilmiy natijalaridan (2020-2023-yy) foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 12-iyundagi 01/4-2451-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘zbekona paralingvistik vositalarning qayd etilgan xususiyatlari orqali loyihaning mukammallashuviga erishilgan;

o‘zbekona noverbal muloqot vositalarining lingvomadaniy tahlili asosida milliy-madaniy kodlar (*soch turmagi, jins, yosh, yuz ifodasi, qo‘l va ko‘z harakati, noz-karashma, yolg‘on gapirish, ishonchsizlik, tajovuzkorlik* va h.k.) aniqlanib, ularning ijtimoiy-madaniy mazmuni yoritilgan xulosalaridan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Samarqand” telekanalining “Kun mavzusi” eshittirishi ssenariysida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Samarqand” telekanalining 2025-yil 27-maydagi №01-07-196-son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu ko‘rsatuvlarning ilmiy-ommabopligi ta’minlanib, yangi ma’lumotlar bilan takomillashishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan va ma’qullangan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, xorijiy jurnalda 3 ta maqola hamda lug‘at chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan; muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqot usullari tavsiflangan; tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi bayon qilingan; tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan; tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **“Noverbal vositalarning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. *“Tilshunoslikda noverbal vositalarning o'rganilishi”* deb nomlangan birinchi faslida bu sohada bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarining tahlillari berilgan. Muloqot inson hayoti va faoliyatining muhim shartidir. Aynan muloqot yordamida insonlar tabiatini o'zlashtirish va o'z individual ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda harakat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shaxsning tafakkuri, olamni va obrazni tahlil qilish hamda baholash qobiliyati muloqot jarayonida shakllanadi. Muloqot jarayonida kishilar verbal, jismoniy, noverbal vositalar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ma'lum bir muloqot jarayonida shaxsning gapirishi, fikr ifodalashi uchun xizmat qilgan noverbal vositalarni funksional qo'llanishini o'rganuvchi soha sifatida *paralingvistika* namoyon bo'ladi. Noverbal muloqotni ilk bor o'rganish Aristotel, Feofrasta, Kvintillian, Sitseronning antik ritorikaga bag'ishlangan ishlarida ko'zga tashlanadi. Noverbal muloqot XX asrning 40-yillarida ilmiy tadqiqot obyektiga aylandi. Noverbal vositalar jahon va o'zbek tilshunoslari tomonidan quyidagi uch yo'nalishga bo'lib o'rganilgan: **1) *nutqiy muloqotning komponentlari o'rtasidagi verbal va noverbal munosabatlarning muammolari:*** Bu yo'nalishda rus tilshunosi L.Greydina, M.A.Antonishseva, E.Yu.Kilmuxametova, Ye.S.Radionova, Yu.V.Dmitriyeva, Allan Piz, M.Saidxonov, Q.Sh.Kaxarov, F.T.Temirova, G.X.Xasanova; **2) *verbal va noverbal muloqotning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qilish masalalari:*** T.B.Reznikova, I.A.Mikaberidze, G.G.Molchanova, N.J.Yarashova, H.K.Turdiyeva, Z.Akbarova, Yu.Sh.Nurmuxammedov kabi olimlar; **3) *verbal va noverbal muloqotning gender tadqiqi masalalari.*** Bunda V.M.Alpatov, Z.R.Xachmafova, O.V.Kirillova, S.Mo'minov, M.O.Baratova, Q.Rasulov X.Sh.Gafforov kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Demak, o'zbek nutqiy muloqotida noverbal vositalarni qo'llanishidan maqsadi so'zlovchi tomonidan aytiladigan fikrni to'liq tushunib yetishda yordamchi vosita sifatida xizmat qilishdir. Noverbal muloqot og'zaki xabarlarga

qo‘shimcha ma‘no bo‘yoqlarini qo‘shadi va diqqatni ma‘lum tafsilotlar, jihatlariga qaratadi. Shu sababli ham, muloqotda noverbal aloqa vositalarining roli nutqqa qaraganda ancha yuqori baholanadi. Ayniqsa, nutqda noverbal vositalarning o‘ziga xos murakkabliklari mavjud bo‘lib, tilshunoslik, madaniyatshunoslik, san‘atshunoslik komponentlarini ifoda etish yoki uni tushunib yetish masalasi olimlar e‘tiboridan chetda qolgan, deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu boisdan lingvistika, san‘atshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida noverbal vositalarni lingvopragmatik jihatlari yetarli darajada mukammal o‘rganilmagan yo‘nalishlarga kiritish mumkin. Uni ilmiy nuqtai nazardan o‘rganish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan tadqiqotlardan ko‘rinib turibdiki, jahon va o‘zbek tilshunosligida paralingvistika bo‘yicha salmoqli izlanishlar olib borilgan. Biroq sohaning milliylik va baynalminallik tamoyili asosida tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan jihatlari o‘z yechimini kutayotgan masalalardandir.

Bobning “*Noverbal nutqiy muloqot – profaylingvistika obyekt*” deb nomlangan ikkinchi fasli dastlab, profaylingvistikaning paydo bo‘lishi, profayling va profaylingvistika sohasi tadqiqotlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Kommunikatsiya jarayonining kengayishi munosabati bilan uni tadqiq etish jarayoni ham murakkablashib bormoqda. Boshqa fan sohalarida bo‘lgani kabi tilshunoslikda ham yangi tarmoq obyektlari yuzaga kela boshladi. Olimlar jahon tilshunosligida kishilar o‘rtasidagi aloqa-aralashuv jarayonini lingvistik xususiyatlar asosida ikki guruhga ajratib o‘rganishni tavsiya etadilar: 1. Tovush tili – eshitish asosidagi mazmun va shakl. 2. Imo-ishora – ko‘rish vositasi bilan amalga oshiriladigan til. Anglash tushunchasi bilan bog‘liq holda “his qilish” yo‘nalishi ham lingvistika ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi⁴. Shundan kelib chiqib, zamonaviy ilm-fanda profayling atamasi qo‘llanilib kelmoqdaki, bu ham insonning sezgi a‘zolari orqali axborotni yetkazish va qabul qilib olishi bilan bog‘liqdir.

Profayling (ing. *profile* – shaxsni tashqi ko‘rinishi) – noverbal va verbal xulqidagi eng ko‘p axborot beruvchi maxsus belgilari, xususiyatlarini tahlil qilish asosida inson xulqini baholash va prognozlashga qaratilgan psixologik usul va metodikalar majmuini bildiruvchi tushuncha. Profayling – bu shaxsning psixologik qiyofasini tuzishdir. 1888-yilda psixologik portret tuzishga uringanlardan biri britaniyalik jarroh Thomas Bond hisoblanadi⁵. Profayling o‘zi tarkibiga – tezkor psixodiagnostika, emotsiyalarni tahlil qilish, manipulyativ texnikalar, gipnotexnologiya, so‘zamonlik, grafologiya, yuz ifodalari tahlili, mushaklar faoliyatini tahlil qilish va ijtimoiy psixologiyani qamrab oladi. Mazkur atama bugungi kunda bir qator sohalarda qo‘llanilib kelmoqda. Jumladan, birinchisi, kriminal profayling deganda, shaxsning o‘ziga xos fazilatlarini tashhislash bo‘yicha psixologik uslublar majmuasidan foydalangan holda taxminiy (qidirilayotgan) jinoyatchini psixologik portretini tuzish tushuniladi. Ikkinchisi, transportdagi “profayling” tushunchasi havo safarida xavfli shaxslarni aniqlash uchun parvozdan oldingi tekshiruv paytida yo‘lovchilarni kuzatish va intervyu

⁴ Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент, 2013. – Б. 16.

⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Profayling>. Skinner, Keith; Evans, Stewart. The Ultimate Jack the Ripper Sourcebook. Little, Brown Book Group, 2013. ISBN 9781472107855.

olish texnologiyasiga ishora qiladi⁶. Shulardan kelib chiqib, bugungi kunda *profaylingvistika* fanining o‘rganilishiga ham asos bor.

Profaylingvistika – bu inson shaxsiyatini lingvistik, psixologik va ijtimoiy belgilar asosida tahlil qiluvchi fan sohasidir. Profaylingvistlar odamning gapirish uslubi, nutq strukturasi, shuningdek, noverbal belgilar orqali ham shaxsga oid muhim axborotlarni aniqlaydilar. Noverbal muloqot profaylingvistik nuqtai nazardan o‘rganilganda quyidagi holatlar aniqlanadi: **shaxs psixotipini aniqlashda** yordam beradi (masalan, xavotirli yoki tajovuzkor holatlar); **yolg‘on yoki haqiqatni farqlashda** qo‘llaniladi (masalan, ko‘z harakati, tana qotib qolishi); **ijtimoiy maqom va ijtimoiy o‘rnini** belgilashga xizmat qiladi (tashqi ko‘rinish, kiyinish uslubi, tana holati); **kommunikativ niyatni** tushunishga yordam beradi (masalan, mimikadagi bexos amalga oshiriladigan harakatlar).

Jahon tilshunosligida paralingvistika fani deyarli barcha tillarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, aksariyat tillarda noverbal vositalarga verbal vositalarga nisbatan ikkilamchi komponent sifatida qaraladi. Natijada nutqda verbal vositalarning imkoniyati cheklanganda, noverbal (paralingvistik) vositalarni birlamchi (mustaqil) muloqot vositasi o‘rnida qo‘llash masalasi nazardan chetda qolib ketgan, noverbal vositalarning struktur tuzilishi tugal ishlab chiqilmagan. Verbal va noverbal vositalarning o‘zaro munosabatlari bir tomonlama tasniflanib, noverbal muloqotni ifodalovchi vositalarning stilistik, etnopsixologik, lingvopragmatik aspektlari va nutqda namoyon bo‘lishining grammatik jihatlari aniqlanmagan. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi zamon tilshunosligida diplomatik, iqtisodiy, siyosiy va turistik muloqotlar chog‘ida madaniyatlararo farqlarning yuzaga kelishini o‘rganish tilshunoslar e‘tiborini alohida jalb etgan eng dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda⁷.

Tadqiqotning **“Noverbal vositalarning tasnifi”** deb nomlangan uchinchi bo‘limida noverbal vositalarni tasniflashga doir fikrlar, tilshunos olimlarning bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Kommunikantlarning intellektual, hissiy va boshqa imkoniyatlarini faollashtirishga yordam beradigan vazifalari noverbal vositalarning tasniflanishiga ta‘sir qiladi. Noverbal muloqotning asosiy vazifalari adabiyotlarda quyidagicha keltirilgan: **Referentlik yoki kommunikativlik**. Adresatga ma‘lum bir ma‘lumotni yetkazish. **Emotiv va ekspressivlik**. So‘zlovchining munosabatini, u nima haqida gapirayotgani, shuningdek, so‘zlovchining hissiy holatini ifodalash. **Appelyativ**. Tinglovchining xulq-atvorini nazorat qilish, so‘zlovchining manfaatlarini aks ettirish. Og‘zaki muloqotni boshqarish va muvofiqlashtirishga yordam beradi. **Fatik**. So‘zlovchining xatti-harakatlarini boshqarish, tinglovchining qiziqishlarni aks ettirish. **Metamatnlilik**. Kommunikatsiya ishtirokchilarining nutqiy xulqini izohlash. **Estetiklik**. Nutqqa nafaqat ritorik bezak berish, balki nutq va uning

⁶ Abdusamatova Sh.S. Profayling xizmatini shaxslararo munosabatlarda tutgan o‘rni. // Academic research in educational sciences Volume 2. ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Academic Research, Uzbekistan 1179 www.ares.uz

⁷ Mirzayev D., Xolmanova Z. Paralingvistika tarixi, hozirgi davr noverbal vositalari va ularning reklamadagi ahamiyati. // O‘zbekiston fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2022. № 13. – B. 48.

barcha tarkibiy qismlarini qayta baholash. **Fikrini shakllantirish.** Kommunikativ aktda nutqni tashkil qilishda qatnashish, noverbal vositalar nutqning chegaralarini, uning segmentlarini va boshqa bironing nutqini kiritishni belgilaydi. Demak, suhbatdoshlarning suhbat jarayonida bir vaqtdagi aloqaning ustunligi ko'zga tashlanadi. Suhbatdoshlarning o'zaro aloqasini norasmiy holatda kechishi natijasida og'zaki nutq shakllaridan va ekstralingvistik omillar (vaziyat konteksti, imo-ishora, yuz-qo'l harakati)dan foydalanish imkoniyatini tug'diradi, natijada so'zlashuv nutqi shakllanadi⁸.

Olimlarning fikr-mulohazalari, noverbal muloqotning asosiy vazifalarini inobatga olgan holda, noverbal aloqa vositalarini quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1-jadval

Noverbal kommunikasiyaning tipi va turlari ⁹	Ilmiy bilish va guruhlar	Vositalar
Fonatsion (akustik) vositalar	a) ekstralingvistika b) paralingvistika v) prosodiya	pauza; nutq tempi; xo'rsinmoq; kulgi; yig'i; yo'tal; qarsak geloskopiya ovozning vokal sifati; diapazon; tembr frazga urg'usi, sintagmatik urg'u, logik urg'u; ton; intonatsiya
Vizual-kinesik vositalar	a) frenologiya b) ekspressiv harakatlar c) fiziognomika v) okulesika	bosh shakli mimika; jest; poza; gavda tutishi; yurish yuzning tashqi ko'rinishi; burun; quloq, ko'z; ko'z qarash yo'nalishi, uzozligi va chastotasi
Belgi-ramziy vositalar	a) sistemologiya b) grafologiya v) aktonika g) gastika d) xirosofiya va podomantiya ye) sternomantiya j) onixomantiya z) numerologiya i) moleosofiya	insonni atrofidagi narsa-buyumlar yozuvning xususiyatlari insonning munosabatlari oziq-ovqat, ichimliklar qo'lning ko'rinishi, kaftning fleksor chiziqlari va tepaliklari; dermatoglifika; oyoq ostining chiziqlari ayollarning ko'krak tuzilishi va hajmining xususiyatlari tirnoqning shakli va rangi xususiyatlari insonning ismi, familiyasi va tug'ilgan kuni xollar
Taktil vositalar (maftunkorlik, teginish, eshitish va ta'm)	a) gaptika yoki takesika b) sensorika v) auskultasiya g) odorika (olfaksiya)	teginish insonning hissiy idroki tovushlarni eshitish va eshitish xatti-harakatlarini idrok etish parfyumning hidi, tamaki va taomning hidi
Makon-zamon vositalari	a) proksemika b) xronemika	suhbatdoshlarning joylashuvi va distansiya vaqtdan foydalanish usullari: monoxron tip (bir xil faoliyatni bir xil vaqtda bajarish) va polixron tip (bir necha vazifani bajarish)

⁸ Ўринбаев Б. Сўзлашув нутқи. – Тошкент, Фан, 1979. – Б. 14.

⁹ Xasanova G.X. Dialogik nutqda noverbal vositalarning o'rni va ularning pragmatik xususiyatlari: Filol.fan.b.fals.dokt. ...diss. avtoref. – Farg'ona, 2023. – B. 13.

Tadqiqotchilar tomonidan “odamlarga bo‘lgan munosabatning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq xatti-harakatlar qoidalari to‘plami¹⁰”ni jamiyatda “o‘rnatilgan odob-axloq qoidalarining yangi tartibi, axloqiy, ijtimoiy munosabatlarga rioya qilish me‘yorlari”¹¹ deb tushunishadi. Noverbal etiket biror xalqning “madaniyati va jamiyatida ishlaydigan, noverbal belgilar va ular o‘rtasidagi munosabatlardan iborat tizim”dir¹². Shunday qilib, noverbal vositalar nutq jarayonini to‘ldiradi, muloqot jarayoni va shaxslararo munosabatlar natijasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Ularning ahamiyati shundan iboratki, suhbatdoshlar bir-birining haqiqiy niyatlarini aniqlashi va muloqot jarayonini yanada samarali amalga oshirishda yordam berishlari bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning “**Vizual-kinesik vositalarning lingvistik funksiyalari**” deb nomlangan ikkinchi bobida vizual kommunikatsiyaning milliy-madaniy xususiyatlari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, vizual-kinesik vositalar, fiziognomika va okulesikaning tilshunoslikka aloqadorligi va matnda ifodalanishi masalalari tahlilga tortilgan. Bobning “*Vizual-kinesik vositalarning milliy-madaniy xususiyati*” deb nomlangan birinchi faslida til va madaniyatning aloqasi, ular o‘rtasidagi umumiylik, tilshunoslikda madaniy kod tushunchasi mohiyati va talqini borasida fikr yuritiladi. Madaniyat inson faoliyati va shu faolliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat va kommunikatsiyaning milliy xususiyatlari ikki asosiy jihatda namoyon bo‘ladi: birinchidan, til, tafakkur, xotira va muloqot o‘rtasidagi munosabatlar orqali, ya‘ni tilning inson faoliyatidagi o‘rni bilan bog‘liq jihatlar; ikkinchidan esa, milliy o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan jarayonlar va aloqa vositalari bilan bog‘liq xususiyatlar. Milliy madaniyatlarga xos bo‘lgan komponentlarga quyidagilarni kiritish mumkin: a) an‘analar, urf-odatlar, marosimlar; b) kundalik (an‘anaviy-kundalik) madaniyat; c) kundalik xulq-atvor, shuningdek, mimika va pantomimik kodlar, d) badiiy madaniyat¹³. Har bir inson esa o‘sha urf-odat, qadriyatlarining ma‘lum bir bo‘lagini o‘zida, xulq-atvori, kiyinishi, harakatlari va so‘zlashuvda tashiydi. Ma‘lumki, verbal muloqot so‘zlar yordamida ifodalansa, noverbal muloqot xatti-harakatlar, mimika va imo-ishoralar, jestlar orqali ifodalanadi. Ikkala holatda ham muloqot xatti-harakatlarning milliy va madaniy asosiga ega bo‘ladi. Har bir millat, mamlakat kishilari o‘z madaniy, milliy xususiyatlariga mos ravishda yurish-turish, turli imo-ishoralar, tana harakatlari, mimikalardan iborat bo‘lgan noverbal xatti-harakatlar tizimiga ega¹⁴. M.Berdvistelning ta‘kidlashicha, 250.000 ta yuz ifodalari mavjud bo‘lib, ular ikki xil usulda mavjud: madaniyatlar uchun

¹⁰ Формановская Н.И. Речевой этикет и культура общения. – Москва, 1989. – С. 47.

¹¹ Русский язык и культура речи. Учебник. под ред. проф. Гойхмана О.Я. – Москва, 2009. – С. 117.

¹² Крейдлин Г.Е. Невербальный этикет: этикетные ситуации приветствия и прощания. // Московский лингвистический журнал. – Москва, 2002. – С. 53.

¹³ Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва, 2000. – С. 146; Микаберидзе И.А. Национально-культурная специфика взаимодействия вербального и невербального компонентов коммуникации (на материале русской и еврейской лингвокультуры): Автореф.дисс... канд. филол. наук. – Краснодар, 2008. – С. 6.

¹⁴ Сайдуллаева С.С. Ўзбек ва инглиз тилларида нуткий этикетларнинг лингвомаданий хусусиятлари: Филол.фан.фалс.докт. ...дисс. – Самарканд, 2022. – В. 86.

umumiy va madaniyatlarning o‘ziga tegishli. Ammo turli madaniyat vakillarining tillari farqlanganligi sababli, lisoniy vositalar bilan hamohang holda noverbal vositalar ham madaniy farqlanib keladi¹⁵.

M.S.Ishanjanova noverbal muloqotga oid lingvokultural kodlarning quyidagi 14 turini sanab o‘tadi: somatik (tana), makon, zamon, predmet, biomorfik, zoomorf, fitomorf, kiyim-kechak, oziq-ovqat, harbiy, diniy, me‘moriy, tabiiy-landshaft kodlari va ma‘naviy kod¹⁶. Ilmiy izlanishlarimizga asosan, noverbal kodlarga qo‘shimcha vizual milliy-madaniy kod: uning tarkibiga kiruvchi – soch turmagi, jins, yosh, ichki hissiyotlar va tashqi ko‘rinishga oid kod turlarini ham aniqladik. Vizual kommunikatsiyaning milliy-madaniy xususiyatlari xususida fikr yuritar ekanmiz, steriotiplarga to‘xtashni joiz deb bildik. O‘zbek tili matnlarining tahlili natijasida steriotiplarning quyidagi ma‘no guruhlari aniqlandi: *Inson a‘zolari bilan bog‘liq bo‘lgan steriotiplar*: alifdek / sarvdek / anorday qizil yuz, gilosday qizil lab. *Insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq steriotiplar*: azroilday xunuk. *Insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq steriotiplar*: gulday nafis. *Insonning ovozi bilan bog‘liq steriotiplar*: ayiqday / sherday / arslonday / tuyaday bo‘kirmoq. *Inson nutqi bilan bog‘liq steriotiplar*: bedanaday / bulbulday sayramoq. *Insonning xarakteri bilan bog‘liq steriotiplar*: bir qop yong‘oqday shaldir-shuldir. *Insonning holati bilan bog‘liq steriotiplar*: baqaday / shamday / haykalday / toshday qotmoq. *Insonning xatti-harakati bilan bog‘liq steriotiplar*: yelimday yopishmoq, yeb qo‘yguday qaramoq. Masalan, *Qizil oyoq kelib, anorday qizil yuzdan judo qildi* (Gazetadan). Misoldagi “anorday qizil yuz” go‘zallik, yoshlik, sog‘lomlik, ayolning jozibasi ramzidir. **Anor** – o‘zbek madaniyatida go‘zallik, hosildorlik va ba‘zan ayollik timsoli. Bu kontekstda “anorday qizil yuz” – sevikli, go‘zal, ehtimol turmush o‘rtoq yoki muhabbat timsoli. Judo qildi – ajratdi, ayirdi, unga yetkazmadi degan ma‘nolarni beradi. Bu yerda ehtimol er va ayol orasini ayirgan kimsani nazarda tutyapti. Jumla achinish, tanqid va afsus ohangida aytilgan. Aytilayotgan gapda aybdor – “qizil oyoq”, ya‘ni ijtimoiy jihatdan salbiy obrazdagi ayol. Maqsad – odamlarni ogoh qilish, axloqiy xulosa chiqarish. **Qizil oyoq** – bu salbiy ijtimoiy stereotip, o‘zbek jamiyatida yengiltak, ma‘nan zaif ayol obrazini bildiradi. **Anorday qizil yuz** esa – go‘zallik, halollik, poklik va sadoqat timsoli. Bu ikki obrazning qarama-qarshiligi – axloqiy mezonlarning buzilishi, sadoqatli ayoldan ayrilish, yoki ayolni boshqa ayol sababli yo‘qotish motivini ko‘rsatadi. Bu holatda lingvomadaniy konflikt mavjud: *Past axloqli ayol (qizil oyoq) – halol va go‘zal ayol (anorday yuzli)ni hayotdan siqib chiqargan*. Jumla orqali o‘zbek xalqining axloqiy qadriyatlari (sadoqat, halollik), ayollikka oid stereotiplari (go‘zal, halol ayol va pastkash “qizil oyoq”), yuqori va quyi ijtimoiy maqomlar qarama-qarshiligi, xalqona obrazlar va poetik ifoda vositalariga boyligi yaqqol ifoda etilgan.

Bobning “*Vizual-kinesik vositalarning matnda ifodalanishi*” deb nomlangan faslida vizual muloqot va uning tarixi, muloqotning filogenetik va ontogenetik

¹⁵ Xasanova G.X. Dialogik nutqda noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari. – Samarqand, 2023. – B. 46.

¹⁶ Ishanjanova M.S. Lingvokultural kodlarning mazmuniy tizimi. // FarDU ilmiy xabarлари, 2024. 1-son.

rivojlanishi, taraqqiyot bosqichlari, frenologiya va uning tilshunoslik bilan aloqasi kabi masalalar tahlilga tortilgan.

Vizual-kinesik muloqot – nutqiy kommunikatsiya bilan aloqador bo‘lgan aloqa-aralashuvda kishining ko‘rish a‘zosi yordamida turli axborot belgilari, tasvirlar, infografika va boshqalar yordamida axborot uzatiladigan aloqa turi. Ushbu turdagi aloqa qisman yoki to‘liq ko‘rishga tayanadi. Bugungi kunda vizual aloqa juda rivojlangan va bir vaqtning o‘zida bir nechta vazifalarni bajarishga mo‘ljallangan. Muloqotning mazkur turi 4 guruhga ajratiladi: **a) frenologiya; b) fiziognomika: yuzning tashqi ko‘rinishi; burun; quloq, ko‘z; c) ekspressiv harakatlar: mimika, jest, poza, gavda tutishi, yurish; d) okulesika: ko‘z qarash yo‘nalishi, ko‘z qarash uzoqligi va chastotasi.**

Frenologiya – (yunoncha phrenos – jon, fe‘l-atvor, xarakter va logos – ta‘limot) – Frans Yozef Gall tomonidan odam yoki hayvonning psixologik xususiyatlari bilan bosh suyagining tashqi shakli o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida ilgari surilgan ta‘limot. Frenologiya ongni turli funksiyalari uchun javobgar bo‘lgan bir nechta ixtisoslashgan quyi tizimlarga bo‘lish g‘oyasini ilgari surgan birinchi nazariya sifatida zamonaviy kognitiv psixologiyada qo‘llanilib kelmoqda. F.Gall fikricha, inson boshi “qalbini ko‘rsatadigan oyna bo‘lib, uning tuzilishi bosh suyagining konfiguratsiyasini, imo-ishorasini o‘rganish kishi xarakterini o‘rganishning asosiy yo‘li, deb hisoblaydi”. M.Barotova esa, paralingvistik vositalar, asosan, hissiyotlarning amaldagi tarjimoni bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda, ayniqsa, bosh va undagi uzvlar (peshona, qosh, ko‘z, quloq, burun, lab, og‘iz, til, tish va h.k.) faol ishtirok etadi, deb ta‘kidlaydi¹⁷. Shunday ekan, insonning bosh suyagining tasviri orqali kishining xarakteri namoyon bo‘ladi. Masalan, *Achchig‘ing chillali, muzlagan qishday, // Norkalla kelgansan chuyda qo‘shmushtday...* Misolda Alpomishning boshi – norning kallasiday, jismonan baquvvat erkaklarga xos bo‘yin ortining yo‘g‘on joyi – chuyda qo‘shmushtday. Polvonlarning chuydali bo‘lganliklari uchun ham kallasi bo‘yniga og‘irlik qilayotganday, boshini egibroq yurishadi. Chunki jismoniy qudratning zohiriy belgisi bo‘lmish chuydaning – bo‘yin tomirining yo‘g‘onligi boshni tik tutish inkonini bermaydi¹⁸. *Nor* – ikki o‘rkachli erkak tuya. *Chuyda* – boshning orqa suyagi¹⁹. *Qo‘shmusht* – qirg‘iy, burgut²⁰. Frenologiya sohasining talqini bo‘yicha kallasi juda katta, boshining orqa suyagi bo‘rtib chiqqan va bo‘yni yo‘g‘on kishi quyidagicha ta‘riflanadi: qat‘iyatli, kuchli, kuzatuvchan, xushmuomala, o‘ziga ishonuvchan, mushaklari baquvvat, irodali.

Yoki, *Alpomish chodirda o‘tirib edi, shunday qaradi, har qalmoqlar kelayapti: kallasi kapaday, tanasi tepaday, butlari selanglab* (Alpomish, 123). Ko‘zlari o‘tday, manglayi cho‘tday, *kallasi gov savatday, qopadigan itday, balki bahaybat boytebatday kampir* (Ravshan, 32). *Beshovi yo‘lda gapirsak deydi tili*

¹⁷ Barotova M.O. O‘zbekona paralingvistik vositalarning tizimiy tadqiqi: Filol.fan.b.fals.dokt. ... diss. – Buxoro. 2023. – B. 45.

¹⁸ Йўлдошев Қ. “Алпомиш” талқинлари. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 140.

¹⁹ Мирзаев Т., Эшонкул Ж., Фидокор С. “Алпомиш” достонининг изоҳли луғати. – Тошкент, 2007. – Б. 162.

²⁰ O‘rinbayeva D.B. Folklor asarlari tiliga xos so‘zlarning izohli lug‘ati. – Samarqand, 2017. – B. 159.

kesilgan, gapiraman desa, g'uldurab qoladi, nima deganiga odam tushunmaydi; qulog'i kesilgan, tili, burni sog'i, **kallasi kadiday** bo'lib, gapirmoqqa dami chiqmay, ko'zi bo'zarib, imlab qoldi, tili sog', qulog'i sog', burni kesilgan gapirayin desa, bu ham bo'lmaydigan, mangqalanib, buning ham gapiga odam tushunmaydigan (Rustam, 44). Misollarda *kalla kapaga, gov savatga, kadiga* o'xshatilmoqda. Bunday ko'rinish, kallaga ega bo'lgan yigit qanaqa quvvatga, kuchga egaligi aniq ifodalanmoqda. Xalq tilida "kalla" va "bosh" so'zlari aksar ma'nodoshlik kasb etadi. "Alpomish" dostonida bu so'zlar har ikkisi o'z o'rnida ishlatilib, uslubda g'oyat noziklik kasb etgan. Kallaning bo'yinga orqa tomondan qo'shiladigan (yelka tomondan qo'shiladigan) qismining qabaratki suyagi qipchoq lahjasida "chuyda" deb nomlanadi. Ammo bu so'z adabiy tilga kirmagan²¹.

Kapa – vaqtincha yashash uchun daraxt, shox va yirik o't-o'lanlar bilan o'rab quriladigan xona, yozgi uy, chayla²². *Gov savat* – ulkan, katta, bahaybat savat²³. *Kadi* – qovoq, oshqovoq; ularning po'stloq qismidan tayyorlangan idish²⁴. E'tibor qaratadigan bo'lsak, har bir obrazning bosh suyagining g'oyat yirikligi va beso'naqayligi ularning yuqoridagi kabi xususiyatlarga egaligini ko'rsatadi. Ammo ularning ko'z, qosh, burun tuzilishi orqali yana aniqroq xarakter-xususiyatini ochishga imkon beradi.

Ikkinchi bobning uchinchi faslini "Fiziognomika va noverbal vositalarning lingvomadaniy talqini (yosh, jins va somatik kodlar misolida)" noverbal vositalar, nafaqat barcha tana harakatlarini, balki kiyim-kechak, bezak, tashqi ko'rinish, soch turmagi, hid, atrof-muhit omillari va hatto vaqtdan qanday foydalanishimizni o'z ichiga oladi²⁵. Shu jarayonda fiziognomika tilshunoslik bilan kesishadi. *Fiziognomika* – bu shunday yaxlit tizimki, muayyan insoning yuzidagi o'zgarishlari va signalarini payqash va tahlil qilishdan iborat. Bunda insonning yuzidagi o'zgarishlarni ayni holatdagi yuz chiziqlariga qarab inson haqida psixologik xulosa chiqarish jarayonidir. Qiziqarli jihati shundaki, muloqot jarayonida inson 80 % axborotni noverbal signallar, ya'ni jestlar (qo'l harakatlari), pozalar, yuz ifodalari, qarashlar orqali ifodalaydi. Qolgan 20% esa so'zlar tovushlardan iboratdir. Shunday ekan, insonning ko'rinishi, quloq, ko'z tuzilishini bilish insonni "o'qish"dir. Ilmiy izlanishlarimizga asosan, noverbal kodlarga qo'shimcha vizual milliy-madaniy kod: uning tarkibiga kiruvchi – soch turmagi kodi, jins kodi, yosh kodi, ichki hissiyotlar kodi va tashqi ko'rinishga oid kod turlarini ham aniqladik:

a) yosh kodi. Yosh kodlari – deganda insonning jismoniy holatini ko'rsatuvchi yosh bilan bog'liq fiziologik holatlar tushuniladi (chaqaloq, bola, yigit, qiz, o'rta yosh, keksa, kampir, chol). *Ko'zlari o'tday, manglayi cho'tday,*

²¹ Тўйчибоев Б. "Алпомиш" ва халқ тили. – Тошкент, 2001. – Б. 61.

²² О'rinbayeva D.B. O'sha asar. – B. 98.

²³ О'rinbayeva D.B. Folklor asarlari tiliga xos so'zlarning izohli lug'ati. – Samarqand, 2017. – B. 71.

²⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006. – B. 332.

²⁵ Xasanova G.X. Dialogik nutqda noverbal vositalarning pragmatik xususiyatlari. – Samarqand, 2023. – B. 8.

kallasi gov savatday, qopadigan itday, balki bahaybat boytebatday kampir (Alpomish).

b) tashqi ko‘rinishga oid kodlar. Tashqi ko‘rinishga oid kodlar insonlarning ko‘rinishi (ozg‘in, semiz, qoramag‘iz, oppoq, uzun bo‘yli, qo‘y ko‘z, qirra burun, jinsi shim yoki uzun ko‘ylakda va hokazo) va tashqi belgilarga ko‘ra ifodalanadigan kod turi hisoblanadi. Masalan, Avazxon polvon ziyofatlar qilib, otasining kelgani sababini bilmoq uchun joyidan turib, *poygaga o‘tib, gardanini xam qilib otasiga qarab...* gapida “*joyidan turib, poygaga o‘tib, gardanini xam qilib*” turish holati o‘zbeklarga xos ekanligi, ya’ni farzandning otasidan yuqorida o‘tirmasligi, uni o‘rnidan turib kutib olishi, otasi gapirganida boshini egib, xam qilib turish holati milliy fazilatlarimizdan hisoblanadi.

c) soch turmagi kodi. Soch turmagi kodi kishilar sochlarining rangi, uzunligi, yig‘ilgan yoki yoyilgan holati, turmagi kabilarni o‘z ichiga oladi. Masalan,

*Qora zulfim eshilgandir toli tol,
Bu so‘zlarga kelgan xonim, quloq sol* (Alpomish).
*Kokillaring eshilgandir tol-tol,
Har toliga bersa yetmas dunyo mol* (Alpomish).

kabi misralardagi noverbal vositalar soch turmagi, ma’naviy va jins kodiga misol bo‘ladi. “*Qora zulf*”, “*kokillar tol-tol*” mutoz adabiyotimizda yosh va go‘zal ayollarning sochini ifodalashda qo‘llanadi. Bundan tashqari parchada jins kodini aniqlashda ham vosita sifatida kelmoqda. Qizning go‘zalligi, suluvligi yuzi, ko‘zi, qomati, aqli bilangina emas, birgina sochiga dunyo molini xiroj qilganda ham yetmas bo‘lsa, qizlarning haqiqiy bahosini tasavvur qilish qiyin. V.Ya.Proppning ta’kidlashicha, qadimgi odamlar dunyoqarashida “soch jon yoki inson magik kuchlarining makoni hisoblangan”²⁶. Inson sochi qadim tasavvurlarda osmon g‘oyasi bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun jahondagi ko‘pgina xalqlarda tug‘ilish, nikoh, o‘lim marosimlari bilan bir qatorda, ilk bor go‘dak sochini olishni ham inson hayotidagi magik-ritual ahamiyatga ega hodisa deb bilganlar. ...Ayollarning sochini yozib yurishi falokat, sochini qirqishi behayolik ramzi hisoblangan²⁷. O‘zbeklarda uzun soch va qora zulf qizning boyligi sanaladi. Soch kodining atributlari – *qosh, kiprik, kokil, gajak, zulf, jamalak, qil, taroq* va boshqalar sochga ega bo‘lgan magik xislatlarga ega bo‘lishi mumkin. Soch kodi orqali insonning qalb kechinmalari, yoqtirish yoki yoqtirmasligini ifodalashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Vizual-kinesik vositalarning lingvomadaniy tahlili**” deb nomlanuvchi uchinchi bobida ekspressiv harakatlarning uzatilayotgan matnning eng muhim qismi ekanligi, kinesika, jest va okulesika haqida ma’lumotlar berilgan. Bobning “*Ekspressiv harakatlar – matnning kommunikativ-emotsional komponenti sifatida*” deb nomlangan birinchi faslida ekspressiv harakatlar va ularning turlari, madaniy semiotik kodlar misollar bilan tahlil qilingan.

²⁶ Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1986. – С. 41.

